

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**ABDUVALIYEVA FERUZAXON TULQINDJANOVNA**

**AHOLINI SUV BILAN TA‘MINLASHNI OPTIMALLASHTIRISHNING  
EKOLOGO-GIGIYENIK JIHATLARI (FARG‘ONA SHAHRI MISOLIDA)**

**14. 00. 07 – Gigiyena**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**FARG‘ONA – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)**

**Abduvaliyeva Feruzaxon Tulqindjanovna**

Aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning  
ekologo-gigiyenik jihatlari (Farg'ona shahri misolida)..... 3

**Абдувалиева Ферузахон Тулкинджановна**

Эколого-гигиенические аспекты оптимизации водоснабжения  
населения (на примере г. Ферганы)..... 25

**Abduvaliyeva Feruzakhan Tulkindjanovna**

Ecological and hygienic aspects of optimization of water supply  
to the population (in the case of Fergana city)..... 47

**E'lon qilingan ishlar ro'yxati**

Список опубликованных работ  
List of published works..... 53

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI  
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI  
PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

---

**FARG‘ONA JAMOAT SALOMATLIGI TIBBIYOT INSTITUTI**

**ABDUVALIYEVA FERUZAXON TULQINDJANOVNA**

**AHOLINI SUV BILAN TA‘MINLASHNI OPTIMALLASHTIRISHNING  
EKOLOGO-GIGIYENIK JIHATLARI (FARG‘ONA SHAHRI MISOLIDA)**

**14. 00. 07 – Gigiyena**

**TIBBIYOT FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)  
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**FARG‘ONA – 2023**

**Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B 2022.1.PhD/Tib2422 raqam bilan ro‘yxatga olingan.**

Dissertatsiya Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengashning web-sahifasida (www.fjsti.uz) va «Ziyonet» Axborot ta’lim portalida (www. ziyonet.uz) joylashtirilgan.

**Ilmiy rahbar:**

**Azizova Feruza Lyutpillayevna**  
tibbiyot fanlari doktori, dotsent

**Rasmiy opponetlar:**

**Iskandarova Go‘zal Tulqinovna**  
tibbiyot fanlari doktori, professor

**Mirzakarimova Malohat Abduvoxitovna**  
biologiya fanlar doktori, katta ilmiy xodim

**Yetakchi tashkilot:**

**Samarqand davlat tibbiyot universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti huzuridagi PhD.04/30.09.2020.Tib.122.01 raqamli ilmiy kengashning 2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_ soat \_\_\_\_dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 712000, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi. 2, tel: 243-06-62, Faks: 243-06-62 e-mail: info@fjsti.uz).

Dissertatsiya bilan Farg‘ona jamoat salomatligi va tibbiyot institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (\_\_\_\_\_raqami bilan ro‘yxatga olingan). Manzil: 712000, Farg‘ona shahri, Yangi Turon ko‘chasi 2, tel:243-06-62, Faks: 243-06-62 e-mail: info@fjsti.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_kuni tarqatildi.

(2023 yil «\_\_\_\_\_» \_\_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ raqamli reestr bayonnomasi).

**A.A. Sidikov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

**M.D.Ashurova**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari nomzodi, dotsent

**J.T. Mamasaidov**

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi ilmiy seminar raisi, DSc, dotsent

## KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining annotatsiyasi)

**Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati.** Dunyoda soʻnggi yillarda suvdan oqilona foydalanish, uning sifati va xavfsizligini taʼminlash, shuningdek, suv isteʼmolini hisobga olishning zamonaviy innovatsion tizimlarini joriy etish boʻyicha kompleks chora-tadbirlar qoʻllanilgan holda suvdan foydalanish, suv taʼminoti va yer osti suv manbalaridan samarali foydalanish sohasida qator ishlar bajarilishiga qaramasdan, ayrim xududlarda toza ichimlik suvi muammosi kun sayin saqlanib qolmoqda. Suvdan foydalanishni samarali tartibga solishni taʼminlash uchun suv resurslarini boshqarish boʻyicha yangi tuzilmalar yaratilgan, ichimlik suvi taʼminoti va suv ishlab chiqarish sohasiga xususiy sektorni jalb qilishda faol ishlar bajarilmoqda, biroq, «...global iqlim oʻzgarishi tufayli ayrim xududlarda yilning issiq, qurgʻochlik fasllari davomiyligi oshib bormoqda, togʻlarda qor zaxiralari maydoni kamaymoqda, kamsuvlik takrorlanishi tobora koʻpaymoqda, bu esa oʻz navbatida suv tanqisligi kelib chiqish xavfining oshishiga olib keladi...»<sup>1</sup>. Birlashgan Millatlar tashkilotining maʼlumotiga koʻra, dunyo aholisining 40% toza ichimlik suvi yetishmaydigan joylarda yashaydi. 2025 yilga kelib, har 10 kishidan 6 nafari yoki 5,5 milliard aholi toza ichimlik suvi tanqis hududda yashashi, yuqumli kasalliklarning 80%dan ortigʻi ichimlik suv sifatining pastligi, sanitar–gigiyenik qoidalar buzilishlari bilan bogʻliq. Dunyoda qariyb 7 mlrdan ziyod aholining 3 mlrdga yaqini ifloslangan suv isteʼmol qilishi va 2 milliard turli kasalliklarga chalingan. Eng achinarlisi, har kuni dunyoda 6 ming bola iflos suv isteʼmol qilganliklari tufayli hayotdan bevaqt vafot etmoqda. Suv obʼektlaridagi antropogen yuklama va ularni tiklanish qobiliyati oʻrtasidagi muvozanatni buzilishi, ekologik noxushlik barcha yirik suv obʼektlari uchun amaliy jihatdan xosligi, suv xoʻjaligi ehtiyojlarini yetarli darajada moliyalashtirilmasligi, ichimlik suvi bilan taʼminlash muammosini jiddiy koʻrinishiga sabab boʻlmoqda. Yuqorida bayon etilganlar aholini suv bilan taʼminlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholash profilaktik tibbiyot sohasi xodimlari oldida turgan dolzarb muammolardan biridir.

Jahonda aholini suv bilan taʼminlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholash maqsadida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Bu borada yer osti suvlarini hosil boʻlish xususiyatlari va ichimlik suvi nomutanosibligini belgilaydigan ustuvor omillari, aholini yer osti suv manbalaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish sharoitlari va suv sifatini ekologo-gigiyenik baholash, aholi salomatlik holati va kasallikni shakllanishida suv omili oʻrni va ahamiyati, ichimlik suv taʼminoti muammosi boʻyicha aholidan sotsiologik soʻrovnoma oʻtkazish va soʻrovnoma tahlili hamda aholini ichimlik suvi bilan taʼminlash sharoitlarini optimallashtirish boʻyicha chora-tadbirlar majmui ishlab chiqish boʻyicha chora-tadbirlar kompleksini ishlab chiqishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar alohida ahamiyat kasb etadi.

---

<sup>1</sup> BMTning 2019 yildagi suv muammosining baratrafi etishga qaratilgan maʼruzasi

Mamlakatimizda tibbiyot sohasini rivojlantirish tibbiy tizimni jahon andozalari talablariga moslashtirish, jumladan, suv ta'minotining izdan chiqishi natijasida yuzaga keladigan kasalliklarni bartaraf etishga qaratilgan muayyan chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Bu borada 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasining yettita ustuvor yo'nalishiga muvofiq aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish darajasini yangi bosqichga ko'tarishda «...birlamchi tibbiy-sanitariya xizmatida aholiga malakali xizmat ko'rsatish sifatini yaxshilash...»<sup>2</sup> kabi vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqqan holda, jumladan, aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholashni optimallashtirish yuzasidan tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida», 2017 yil 14 maydagi PF-2954-son «Yer osti suvlari zahiralardan oqilona foydalanishni nazorat qilish va hisobga olishni tartibga solish chora tadbirlari to'g'risida», 2019 yil 26 noyabrdagi PF-5883-son «Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlanganlik darajasini oshirish va uning sifatini yaxshilash uchun O'zbekiston Respublikasi suv resurslarini boshqarishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida», 2020 yil 25 sentyabrdagi PF- 6074-son «Ichimlik suv ta'minoti va oqava suv tizimini yanada takomillashtirish hamda sohadagi investitsiya loyihalari samaradorligini oshirish chora tadbirlari to'g'risida»gi 2018 yil 30 noyabrdagi PQ-4040 son «O'zbekiston Respublikasida ichimlik suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida», 2018 yil 18 dekabridagi 4063-son «Yuqumli bo'lmagan kasalliklarning profilaktikasini, sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va aholini jismoniy faolligi darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida» gi qarorlar hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

**Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi.** Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VI. «Tibbiyot va farmakologiya» ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ichimlik suvi insonlar salomatligidagi eng asosiy omillardan biri bo'lib hisoblanadi. Uning deyarli barcha manbalari turli darajadagi antropogen va texnogen ta'sirlarga uchraydi. Ichimlik suvi sifati muammosi ham global ko'lamda, ham alohida olingan aholi yashash xududida ham dolzarb bo'lib qolmoqda. Suvning tozaligini baholash borasida qator ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan, bularga: atrof-muhitni muhofaza qilishni ekologik va gigiyenik aspektlari (L.M.Mamontov, 2000; T.A.Trifonov, N.V.Selivanova, 2003); ichimlik suv sifatini aholi salomatligiga ta'siri bo'yicha

---

<sup>2</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni.

(A.A.Golenkov, G.G.Onishenko, 2003; Yu.A.Raxmanin va hammual., 2003; A.T.Popov, 2003); suv havzalarini sanitar muhofaza qilish, suvni sanitar toksikologiyasi, suvda zaharli moddalarni gigiyenik me'yorlashtirish, aholini ichimlik suv bilan ta'minlashni gigiyenik muammolari va uni yuqumli va yuqumsiz kasalliklarni tarqalishidagi o'rni, aholini sifatli ichimlik suvi bilan ta'minlash muammolari (Sakiyev K.Z., 2005; Raxmanin E.E. va hammual., 2005; A.N.Tulakin va hammual., J.M.Wright, 2002; S. Hales et. al, 2003); aholining uyushgan va uyushmagan guruhlarini yer osti suv ta'minoti manbalaridan ichimlik suv bilan markazlashtirilgan holda ta'minlash muammolari va ularni hal etish yo'llari (Mari P. et al, 2000); ham ichimlik, ham xo'jalik-ichimlik maqsadlari uchun foydalaniladigan suv ta'minoti manbalarini bakteriyalar, patogen viruslar bilan ifloslanish darajasi, ularni kamaytirishga qaratilgan chora tadbirlar (Onishenko G.G., 2001); suv tozalash va kanalizatsiya tizim qurilmalarini ish samaradorligiga ta'sir etuvchi omillarni, ichimlik suvini ifloslantiruvchi asosiy manbalar va ifloslantiruvchi manbalarni suv havzalari suviga, suvdan foydalanish sharoitiga va suvga bog'liq bo'lgan kasalliklarni tarqalishiga ta'sir darajasi o'rganilgan (Pavlov A.V., Romanenko K.K.2005; Xijnyak N.M., 2006). Shu bilan birga, mamlakatning suv balansini boshqarishda vakolatli davlat organlarining faoliyatini muvofiqlashtirish zaruriy darajada olib borilmayapti, shuningdek suv resurslarining sifati va xavfsizligi monitoringini amalga oshirishning samarali tizimi yaratilmagan.

O'zbekistonda atrof-muhit va turli xavf omillari xususiyatlarini gigiyenik aspektlarini baholash borasida qator ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda (T.I.Iskandarov, 2022; G.I.Shayxova, 2019; 2020; D.A.Zaredinov, 2020; Kamilova R.T., 2020; F.I.Salomova, 2021; N.J.Ermatov, 2021;2022) biroq, aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlari gigiyenik baholanmagan.

Farg'ona viloyatida suv muhitining ekologik muammolari aholining hayot sifati va suv resurslariga ko'rsatadigan salbiy ta'sirlar majmuasi bilan tavsiflanadi. Mintaqadagi aholining salomatlik holatiga suv omili ta'siri to'g'risidagi ishonchli va yetarli ma'lumotlarni mavjud emasligi Farg'ona shahar aholisi salomatligini muhofaza qilish va ichimlik suvidan foydalanishni optimallashtirish uchun chora tadbirlarni kelgusida samarali rejalashtirishni qiyinlashtiradi.

**Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi.** Dissertatsiya tadqiqoti Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq №012000258 «Farg'ona vodiysi aholisining salomatlik holati, atrof-muhit holati, unga ta'sir etuvchi xavf omillarini aniqlash va aholini turli guruhlarini hayot sifatini yaxshilash bo'yicha donozologik chora-tadbirlar majmuasini ishlab chiqish» (2018-2022 yy) mavzusidagi ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

**Tadqiqotning maqsadi** Farg'ona shahar aholisiga markazlashtirilgan holda etkazib beriladigan yer osti suv manbalari suvi tarkibining makro va mikroelementlar muvozanatini aholi salomatligiga ta'sir xavfini kamaytirish va

ichimlik suvidan foydalanish sharoitlarini yaxshilash bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni takomillashtirishdan iborat.

**Tadqiqotning vazifalari:**

yer osti suvlarini hosil bo'lish xususiyatlarini o'rnatish va ichimlik suvi nomutanosibligini belgilaydigan ustuvor omillarni baholash;

aholini yer osti suv manbalaridan ichimlik suvi sifatida foydalanish sharoiti va suv sifatini ekologo-gigiyenik baholash;

aholini salomatlik holatini o'rganish va kasallikni shakllanishida suv omili o'rni va ahamiyatini baholash;

ichimlik suv ta'minoti muammosi bo'yicha aholidan sotsiologik so'rovnoma o'tkazish va so'rovnoma natijalarini tahlili;

aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash sharoitlarini optimallashtirish bo'yicha chora-tadbirlar majmu ishlab chiqishdan iborat.

**Tadqiqot ob'ekti** sifatida aniq tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy muhitda istiqomat qiluvchi Farg'ona shahar aholisini ichimlik suvi bilan ta'minlash manbalari, shahar aholisining demografik ko'rsatkichlari va kasallanish holati olindi.

**Tadqiqotning predmeti** sifatida ekologo-tahliliy va matematik-kartografik usullar asosida aholining salomatligi va suv resurslari, ichimlik suv sifati, ichimlik suv ta'minoti holatlari o'rtasidagi funktsional aloqani majmuaviy tahlili hisoblanadi.

**Tadqiqotning usullari.** aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholashda sanitar-gigiyenik, sanitar-kimyoviy, mikrobiologik, instrumental va statistik tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

**Tadqiqotning ilmiy yangiligi** quyidagilardan iborat:

aholini suv bilan ta'minlash manbasining joylashish joyi, suvining sifat ko'rsatkichi, loyqaligi va aholining jon boshiga mos keladigan miqdori, yilning mavsumiyliigi va yog'ingarchiliklarga bog'liqligi isbotlangan;

aholi turar joylarida istiqomat qiluvchilar orasida suv orqali tarqaladigan kasalliklar, oshqozon-ichak tizimi, buyrak-tosh kasalliklarining guruhlar orasida tarqalishining suv omili bilan assotsiatsiyalanuvchi kasallanish tuzilmasi va tarqalish darajasi asoslangan;

aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlashni nazoratini amalga oshirishda tashkiliy-tuzilmaviy, laborator natijalar asosida suvining mineral tarkibini nazorat qilish va davlat standart talablariga moslashtirishga qaratilgan yer osti suvi manbasini chuqurligini ikki martaga oshirish zarurligi isbotlangan;

aholini ichimlik suvi bilan etarli miqdorda ta'minlash orqali buyrak-tosh va oshqozon ichak tizimi kasalliklarni oldini olishning profilaktik tizimini samaradorligi oshirish orqali aholini xayot sifatini oshirishga qartilgan ilmiy-tashkiliy, texnik va informatsion chora-tadbirlarni ishlab chiqilgan.

**Tadqiqotning amaliy natijalari** quyidagilardan iborat:

aholini suv bilan ta'minlash vazifasini optimallashtirishga nisbatan ilmiy uslubiy yondoshuvlarni ishlab chiqishga, mintaqaviy o'ziga xosliklarni hisobga



olish bilan aholi salomatligi uchun xavfsiz va zararsiz bo'lgan ichimlik suvini eng yuqori darajada ta'minlashga imkon bergan;

aholi salomatligi va ichimlik suv sifatini yaxshilash bo'yicha mintaqada suvdan foydalanish sharoitlari ustidan sanitar nazoratni optimallashtirishning sanitar-gigiyenik va profilaktik chora tadbirlarini majmuaviy tizimi ishlab chiqilgan.

**Tadqiqot natijalarining ishonchliligi** qo'llanilgan nazariy yondashuv va usullar, olib borilgan tadqiqotlarning uslubiy jihatdan to'g'riligi, yetarli darajada material tanlanganligi, qo'llanilgan usullarning zamonaviyligi, ularning biri ikkinchisini to'ldiradigan sanitar-gigiyenik, sanitar-kimyoviy, mikrobiologik, instrumental va statistik tadqiqot usullar asosida aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarining o'ziga xosligi, xalqaro hamda mahalliy tajribalar bilan taqqoslangani, xulosa, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

**Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.** Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, aholisini suv bilan ta'minlash vazifasini optimallashtirishga nisbatan ilmiy uslubiy yondoshuvlar ishlab chiqilgan, mintaqaviy o'ziga xosliklarni hisobga olish bilan aholi salomatligi uchun xavfsiz va zararsiz bo'lgan ichimlik suvini eng yuqori darajada ta'minlash, aholi salomatligi va ichimlik suv sifatini yaxshilash bo'yicha mintaqada suvdan foydalanish sharoitlari ustidan sanitar nazoratni optimallashtirishning sanitar-gigiyenik va profilaktik chora tadbirlarini majmuaviy tizimi ishlab chiqilganligi bilan izohlangan.

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati aholi turar joylarida istiqomat qiluvchilar orasida suv orqali tarqaladigan kasalliklar bilan kasallanish ko'rsatkichlari, suv omili bilan assotsiatsiyalanuvchi aholini kasallanish tuzilmasi va tarqalish darajasi, tashkiliy-tuzilmaviy, laborator, uslubiy va informatsion ta'minoti hamda suv ta'minotini optimallashtirish maqsadida ilmiy-tashkiliy, texnik va informatsion chora tadbirlarni ishlab chiqilganligi bilan izohlangan.

**Tadqiqot natijalarini joriy qilinishi.** Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot instituti ekspert kengashining 2023 yil 24 iyuldagi 01-02/d-x-01-son xulosasiga ko'ra:

Birinchi ilmiy yangilik: aholini suv bilan ta'minlash manbasining joylashish joyi, suvining sifat ko'rsatkichi, loyqaligi va aholining jon boshiga mos keladigan miqdori, yilning mavsumiyiligi va yog'ingarchiliklarga bog'liqligi Farg'ona suv ta'minoti ma'suliyati cheklangan jamiyat Farg'ona shahar bo'limi bo'yicha 2023 yilning 2 maydagi 34-sonli buyruq, Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Farg'ona viloyati boshqarmasining 2023 yilning 11 maydagi 52-sonli buyruq hamda Farg'ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2023 yilning 10 iyundagi 145-I-05-sonli buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: er osti suv manbalarini hosil bo'lishida axamiyatga ega bo'lgan hududni sanitar epidemiologik, gidrogeologik va meliorativ holatini yaxshilash er osti suv manbalari suvini sifatini yaxshilashga olib kelganligi isbotlangan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat:

Farg‘ona shahar aholisining 6,9% ichimlik suvi bilan ta‘minlanmagan uy xo‘jaliklarini markazlashtirilgan ichimlik suvi ta‘minotiga ulanish natijasida har oyda o‘rtacha 4 500 – 5 500 so‘m iqtisod qilinadi (O‘zbekiston suv ta‘minot tarifiga ko‘ra markazlashtirilgan ichimlik suvi ta‘minotiga ulangan 1 ta uy xo‘jaligi uchun bir oyda o‘rtacha 8000 so‘m, ulanmagan 1 ta uy xo‘jaligi uchun 12 500 – 13 500 so‘mni tashkil qiladi). Xulosa: Farg‘ona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suvi ta‘minoti bilan to‘liq ta‘minlanishi ichimlik suviga ulangan 1 ta uy xo‘jaligi hisobiga yillik 54 000 – 66 000 so‘mga byudjetdan tashqari mablag‘larni iqtisod qilish imkonini beradi.

Ikkinchi ilmiy yangilik: aholi turar joylarida istiqomat qilayotgan aholi orasida suv orqali tarqaladigan kasalliklar, oshqozon-ichak tizimi, buyrak tosh kasalliklarining yosh, jins va guruhlar orasida tarqalishining suv omili bilan assotsiatsiyalanuvchi kasallanish tuzilmasi va tarqalish darajasini baholash natijalar Farg‘ona suv ta‘minoti ma‘suliyati cheklangan jamiyat Farg‘ona shahar bo‘limi bo‘yicha 2023 yilning 2 maydagi 34-sonli buyruq, Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Farg‘ona viloyati boshqarmasining 2023 yilning 11 maydagi 52-sonli buyruq hamda Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2023 yilning 10 iyundagi 145-I-05-sonli buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Ichimlik suvi tarkibida umumiy qattqlik miqdorining oshganligi bir qator kasalliklarni shakllanishi va kechishi, qon hosil qilish, nafas olish tizimi, qon kasalliklari, buyrak-tosh kasalliklari, teri va teri osti kletchatka chora-tadbirlarni qo‘llanilishi va aholi orasida suvga bog‘liq bo‘lgan kasallanish ko‘rsatkichlarini kamaytirishga imkon bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: aholi turar joylarida istiqomat qiluvchilar orasida suv orqali tarqaladigan kasalliklar, oshqozon-ichak tizimi, buyrak tosh kasalliklarining yosh, jins va guruhlar orasida tarqalishining suv omili bilan assotsiatsiyalanuvchi kasallanish tuzilmasi va tarqalish darajasini baholashda bitta bemorning 1 kunlik shifoxonada bo‘lishi uchun o‘rtacha 110 ming so‘m, agar yetti kundan 10 kungacha shifoxonada bo‘lsa, 770 ming so‘mdan 1million 100 so‘mgacha byudjetdan iqtisod qilish imkonini bergan. Xulosa bitta bemorning 1 kunlik shifoxonada bo‘lishi uchun o‘rtacha 110 ming so‘m, agar yetti kundan 10 kungacha shifoxonada bo‘lsa, 770 ming so‘mdan bir million 100 so‘mgacha byudjetdan iqtisod qilish imkonini bergan.

Uchinchi ilmiy yangilik: aholini toza ichimlik suvi bilan ta‘minlashni nazoratini amalga oshirishda tashkiliy-tuzilmaviy, laborator natijalar asosida suvining mineral tarkibini nazorat qilish va davlat standart talablariga moslashtirishga qaratilgan er osti suvi manbasini chuqurligini ikki martaga oshirish zarurligi Farg‘ona suv ta‘minoti ma‘suliyati cheklangan jamiyat Farg‘ona shahar bo‘limi bo‘yicha 2023 yilning 2 maydagi 34-sonli buyruq, Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Farg‘ona viloyati boshqarmasining 2023 yilning 11 maydagi 52-sonli buyruq hamda Farg‘ona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2023 yilning 10 iyundagi 145-I-05-sonli buyruq bilan amaliyotga joriy

etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Fargʻona shahar aholisini er osti suvlaridan olingan SanQvaM 0200-06 va DavST 950:2011 talablariga mos holga kelgan sifatli vodoprovod suvi bilan taʼminlash tizimini, vodoprovod inshooti qurilmalari samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar, suv tortuvchi nasoslar chuqurligini oshirish, Fargʻona shahriga ichimlik suvi sifatini yaxshilash imkonini bergan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: transport va kimyoviy reaktivlar xarajatlarini qisqartirish natijasida 1 ta suv namunasi tahlilining xarajati 18 400 soʻmga kamaytirgan (OʻzR Sanepidqoʻmitaning preyskurantiga koʻra 1 ta suv namunasi tahlilining narxi 43 800 soʻm tashkil qiladi). Xulosa: 50 ta suv namunasi hisobiga byudjet mablagʻlarini 920 000 soʻmga va byudjetdan tashqari mablagʻlarni 331 200 soʻmga iqtisod qilish imkonini bergan.

Toʻrtinchi ilmiy yangilik: aholini ichimlik suvi bilan etarli miqdorda taʼminlash orqali buyrak-tosh va oshqozon ichak tizimi kasalliklarni oldini olishning profilaktik tizimini samaradorligi oshirish orqali aholini hayot sifatini oshirishga qaratilgan ilmiy-tashkiliy, texnik va informatsion chora-tadbirlar Fargʻona suv taʼminoti maʼsuliyati cheklangan jamiyat Fargʻona shahar boʻlimi boʻyicha 2023 yilning 2 maydagi 34-sonli buyruq, Sanitariya epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi Fargʻona viloyati boshqarmasining 2023 yilning 11 maydagi 52-sonli buyruq hamda Fargʻona jamoat salomatligi tibbiyot institutining 2023 yilning 10 iyundagi 145-I-05-sonli buyruq bilan amaliyotga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi quyidagilardan iborat: Fargʻona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suvi bilan taʼminlash holati shahar suv olish manbalari antropogen ifloslanish, foydalaniladigan er osti suv manbalaridan olingan suvlar maxsus tozalash usullari bilan tozalanmasligi barchasi esa Fargʻona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suv bilan taʼminlanish holatini oʻzgarishi, ichimlik suv bilan bogʻliq boʻlgan yuqumli va yuqumsiz kasalliklar darajasini keskin ortishiga olib kelganligi bilan izohlangan. Ilmiy yangilikning iqtisodiy samaradorligi quyidagilardan iborat: aholini etarli miqdorda sifatli ichimlik suvi bilan taʼminlash turli suv bilan bogʻliq boʻlgan va boʻlmagan kasalliklarni oldini olish, aholini ishga yaroqlilik davrini oshirishga «Fargʻona, Margʻilon shaharlari va unga yaqin aholi yashash joylarida ichimlik suvi taʼminotini tubdan yashilash» loyihasini amalga oshirish 48,261 million dollarni ajratilib, bundan 44,973 million dollarni Xitoy Xalq Respublikasi Eksimbankining 20 yillik kredit mablagʻi (5 yillik imtiyoz bilan), Shuningdek, 3,282 million dollari mamalaktimiz byudjet mablagʻidan va 0,005 million dollari Fargʻona viloyat Suvoqava ishlab chiqarish boshqarmasining byudjetdan tashqari mablagʻlari hisobiga amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Andijon viloyatida joylashgan Kampirobod suv omboridan foydalanish rejasi ishlab chiqilgan boʻlib, bu loyihani amalga oshirish Fargʻona viloyatini 2 shahri (Fargʻona, Margʻilon) va 5 tumanini (980 ming aholi) markazlashtirilgan ichimlik suv bilan taʼminlash imkonini berganligi bilan izohlangan. Xulosa: Fargʻona shahri aholisini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan

ta'minlovchi burg'uli quduqlarning (68 quduqdan hozirgi kunda 4 ish holatida emas) umumiy suv etkazib berishi 8169,1 m<sup>3</sup>/sutka ekanligini hisobga olsak, aholi o'rtasida suv tanqisligi sezilarli darajada ekanligini ko'rish mumkin. Bu esa turli noxush holatlarning boshlang'ich nuqtasi bo'ladi. Shuning uchun Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlashda nafaqat er osti suv ta'minoti manbalari, balki ochiq suv manbalaridan foydalanish zaruriyatini ham yuzaga keltirdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 2-maydagi PQ-855 sonli qaroriga asosan «Farg'ona, Marg'ilon shaharlari va unga yaqin aholi yashash joylarida ichimlik suvi ta'minotini tubdan yashilash» loyihasini amalga oshirish 48,261 million dollarni ajratilib, bundan 44,973 million dollarni Xitoy Xalq Respublikasi Eksimbankining 20 yillik kredit mablag'i (5 yillik imtiyoz bilan), shuningdek, 3,282 million dollari mamlakatimiz byudjet mablag'idan va 0,005 million dollari Farg'ona viloyat Suvoqava ishlab chiqarish boshqarmasining byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga amalga oshirilishi rejalashtirilgan. Andijon viloyatida joylashgan Kampirobod suv omboridan foydalanish rejasi ishlab chiqilgan bo'lib, bu loyihani amalga oshirish Farg'ona viloyatini 2 shahri (Farg'ona, Marg'ilon) va 5 tumanini (jami 980 ming aholi) markazlashtirilgan ichimlik suv bilan ta'minlash imkonini beradi.

**Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi.** Mazkur tadqiqot natijalari 4 ilmiy-amaliy anjumanlarda bayon etildi, jumladan 2 xalqaro va 2 respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokama qilindi.

**Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi.** Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 15 ta ilmiy ish chop etilgan bo'lib, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalarni asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 ta maqola, jumladan, 2 tasi respublika va 2 tasi horijiy ilmiy jurnallarda nashr etilgan.

**Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi.** Dissertatsiya tarkibi kirish, beshta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 120 betni tashkil etgan.

## **DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI**

**Kirish** qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, ob'ekti va predmetlari tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, ularning nazariy va amaliy ahamiyatlari ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, ishni aprobatsiya natijalari, nashr qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning «**Aholini ichimlik suvi bilan ta'minlash manbalari, ularning holatini ekologo-gigiyenik baholashning dolzarb muammolari**» deb nomlangan birinchi bobida mazkur muammoning zamonaviy holati, markazlashtirilgan ichimlik suvi bilan ta'minlashni gigiyenik tamoillari, suvdan

foydalanish holati borasida xorijiy va mahalliy ilmiy manbalar tahlil qilingan. Yer osti suvlari sifatini ekologo-gigiyenik baholash, suv ta'minoti manbalaridan foydalanishga zamonaviy yondoshuvlar, toza ichimlik suvi sifati va xavfsizligini baholash usullarining samaradorligini baholash hamda ushbu muammoni ilmiy hal etishga mualliflik yondoshuvining tavsifi berilgan.

Dissertatsiyaning «**Aholini suv bilan ta'minlashni optimallashtirishning ekologo-gigiyenik jihatlarini baholash material va usullari**» deb nomlangan ikkinchi bobida mazkur muammoning metodologik asosi keltirilgan, jumladan tadqiqotning ob'ekti, xajmi va tadqiqot usullariga taaluqli bo'lgan masalalari tavsiflangan. Surunkali kasalligi bilan xastalangan bolalar va o'smirlarning kasallanishini o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish uchun bolalar va o'smirlarning tibbiy kartalaridan (№026 h/shakli) va rivojlanish tarixi (№112 h/shakli) ko'chirmalar amalga oshirildi. Keyinchalik 3 yillik o'rtacha ekstensiv ko'rsatkichlarni hisobga olish bilan 2018-2020-yillar davomida qayd qilingan kasalliklar hisobga olindi. Kasalliklar tuzilmasini tahlil qilish XKT-10 ga muvofiq amalga oshirilgan, burg'uli quduqlarni sanitar-texnik tekshirishda, quduqlarning har birini to'g'ri tuzilishga ega ekanligi, ulardan to'g'ri foydalanish holati, quduq devorlarining holati, ularni mustahkamlovchi moslamalarning mavjudligi, quduq atrofida tashkil etilgan ayvonchalar, quduqdagi nasoslarning turi, ularni profilaktik ta'mirlash holatini tekshirish ishlari amalga oshirildi. Bunda olib borilgan barcha tekshirishlar SanNvaQ 0200-06 talablariga asosan bajarildi.

Aholiga beriladigan ichimlik suvining sutkalik sarfi ko'plab omillarga, eng birinchi navbatda esa suv ta'minot turiga bog'liq. Suv ta'minotining ikkita turi farqlanadi: markazlashtirilgan (vodoprovod) va markazlashtirilmagan (mahalliy). Markazlashtirilgan suv ta'minotida ichimlik suvi iste'molchiga vodoprovod tizimi orqali beriladi. Bu suvni manbadan (ochiq yoki yopiq) olib, amaldagi davlat standarti talablariga mos xolga kelgunicha tozalash inshootlarida tozalanib, aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib berilishini ko'zda tutadigan muhandislik qurilmalar majmuasidir. Bunda iste'molchilar ichimlik suvini bevosita vodoprovod tizimi orqali olib iste'mol qiladi. Mahalliy suv ta'minoti holatida esa iste'molchi ichimlik suvini shaxtali quduq, burg'uli quduq qurilmalari orqali olib iste'mol qiladi.

Aholi punktidagi suv iste'molining umumiy sarfi (Q) quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$Q=Q_1+Q_2 +Q_3 + Q_4 + Q_5 + Q_6$$

Bu yerda:  $Q_1$  –turar joy va jamoat binolaridagi xo'jalik-ichimlik va maishiy talablar uchun suvning kunlik sarfi;  $Q_2$  – aholi yashash joyida kelajakda o'sishini hisobga olish bilan suv sarfi;  $Q_3$  – ishlab chiqarish va qishloq xo'jaligi sohasida sarflanadigan suv miqdori;  $Q_4$  – dam olish uylari, sanatoriyalar, bolalarning yozgi oromgohlari uchun sarflanadigan suv miqdori;  $Q_5$  – o't o'chirish uchun sarflanadigan suv hajmi;  $Q_6$  – mahalliy o'ziga xosliklar, jumladan iqlimiy sharoitlarni hisobga olish bilan sarflanadigan suv miqdori.

Suv iste'moli miqdori sezilarli darajada aholi puktining obodonlashtirilganlik darajasi va uni yashash fondiga bog'liq bo'ladi, aynan u yuqori bo'lganda suv sarfi ortadi. Shundan kelib chiqqan holda, xo'jalik-ichimlik suv iste'molining nisbiy me'yorlari ishlab chiqildi (Shaharsozlik. Shahar va qishloq aholi puktari hududlarini rivojlantirish va qurilishini rejalashtirish. ShNQ 2.07.01-03\*).

### 1-jadval

#### Aholi yashash joylarida xo'jalik-maishiy suv ta'minoti me'yorlari (ShNQ 2.07.01-03\*)

Hududni obodonlashtirilganlik darajasi	Fizik-geografik tumanlarda istiqomat qiluvchilarni xo'jalik-ichimlik suv ta'minotining o'rtacha kunlik me'yori		
	Tekislik	Yarim tekislik	Cho'l
Vodoprovod, kanalizatsiya, markazlashtirilgan issiq suv ta'minoti	280	290	300
Vodoprovod, kanalizatsiya, mahalliy suv isituvchi qurilmalar	200	210	230

Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar Pentium-IV shaxsiy kompiyuterida Microsoft Office Excel-2016 dasturiy paketidan foydalanib, statistik qayta ishlashning o'rnatilgan vazifalarini qo'llanilgan tartibda statistik qayta ishlandi.

Dissertatsiyaning «**Farg'ona viloyati hududining tavsifi, gidrogeologik tuzilishi va ichimlik suv ta'minotining o'ziga xos xususiyatlari**» deb nomlangan uchinchi bobida Farg'ona viloyati O'zbekiston Respublikasida ilk tashkil etilgan viloyatlardan biri hisoblanadi. U 1938 yil 15 yanvarda tuzilgan. Farg'ona viloyati hududiy jihatdan 15 ta tuman va 4 ta shaharga bo'lingan: 15 tumanlari—Bog'dod, Beshariq, Buvayda, Dang'ara, Yozyovon, Oltiariq, Qo'shtepa, Rishton, So'x Toshloq, Uchko'prik, Farg'ona, Furqat, Quva va O'zbekiston; 4ta shahar: Farg'ona, Marg'ilon, Qo'qon, Quvasoy shaharlari kiradi. Maydoni 6,76 ming km<sup>2</sup>. Aholisi 4 mln. kishiga yaqin (3 819 963 ming kishi 2021 yil holatiga) (11,0 foiz). Demografik sig'imi bo'yicha u Samarqand viloyatidan keyingi 3-o'rinda turadi. Viloyatning ma'muriy markazi - Farg'ona shahri (1907 yilgacha – Yangi Marg'ilon; 1907-1924 –yillarda Skobelev deb atalgan), maydoni 0,09 ming m<sup>2</sup>, aholisi 293512 ming kishi (2021 yil holatiga). Shahar Farg'ona vodiysining janubiy qismida, Oloy tog'larining etagida, 580 metr balandlikda joylashgan. Iqlimi kontinental.

Farg'ona viloyati mamlakatimizda sanoati rivojlangan mintaqalardan biri hisoblanadi. U Respublikaning 12,7 sanoat va 10,6 foiz qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlaydi. Hududiy mehnat taqsimotida yengil, oziq-ovqat, neft

va neftni qayta ishlash, kimyo sanoati hamda paxta, pilla va meva yetishtirish bilan ajralib turadi.

Tuproq tarkibidagi tuzni yuvish uchun qamrab olinadigan hududning umumiy maydonni 22904,7 ga ni tashkil etadi, ulardan So‘x-Pop vertikal yo‘nalishi bo‘yicha 5941,5 ga, Vodil-Nanay–8292,2 ga va Xonobod-Beshariq gorizonta yo‘nalishi bo‘ylab 8671,0 ga, yer osti suvlarining oqim davomiyligi mos holda 80,2 va 245,0 km ni tashkil etadi. Bu yerdagi 86 asosiy kesmalarda va grunt suvlarining 30 namunalarida 0–30, 0–50, 0–100, 0–200 sm chuqurliklarda yer osti suvlari tarkibidagi oson eruvchi tuzlar miqdori va HCO<sub>3</sub>, Cl, SO<sub>4</sub>, Ca, Mg, Na va zich cho‘kma miqdori aniqlandi.

Farg‘ona vodiysidagi yer osti grunt suvlari tuproqning turli chuqurliklarida joylashadi, oddiy kulrang tuproq tarqalgan hududlarda grunt suvlari 15-20 metr chuqurlikda, och kulrangli hududlarda 4-6 metr chuqurlikda joylashsa, markaziy Farg‘onaning gidromorf tuprog‘ida joylashgan grunt suvlari yer yuzasidan 0,5-2,0 metr chuqurlikda joylashadi (2-jadvalga qarang).

## 2-jadval

### Farg‘ona viloyati gidromorf tuprog‘i grunt suvlarining minerallashtirish darajasi va kimyoviy tarkibi

kesimida	chuqurligi, sm	zich qoldiq	HCO <sub>3</sub>	Cl	SO <sub>4</sub>	Ca	Mg	Na	Tuzlanish miqdori	
		g/l							Tipi	Darajasi
7	150	2,395	0,317	0,224	1,107	0,460	0,036	0,199	x-s	kuchsiz
8	170	3,605	0,665	0,196	1,785	0,540	0,306	0,033	s	o‘rta
13	150	2,820	0,262	0,203	1,522	0,470	0,210	0,022	s	kuchsiz
19	170	2,830	0,592	0,070	1,399	0,450	0,198	0,047	s	kuchsiz
20	130	2,490	0,409	0,203	1,183	0,420	0,194	0,003	x-s	kuchsiz
21	170	2,870	0,268	0,056	1,769	0,500	0,210	0,013	s	kuchsiz
22	154	2,995	0,354	0,063	1,761	0,630	0,138	0,033	s	kuchsiz
23	106	3,160	0,317	0,070	1,921	0,500	0,264	0,011	s	o‘rta

2-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, Markaziy Farg‘onaning o‘tloq tuproqlaridagi grunt suvlari yer ostida 106–170 sm chuqurligida joylashadi, ularning minerallashtirish darajasi zich cho‘kma bo‘yicha 2,395–3,605 g/l, xloridlar miqdori bo‘yicha esa 0,056–0,224 g/l chegarasida o‘zgarib turadi. Bu yerdagi grunt suvlari asosan sulfatlar miqdorining yuqoriligi sababli tuzlanishi bilan tavsiflanadi. Tuzlarning sifat tarkibida asosan CaSO<sub>4</sub> ustunlikka ega bo‘ladi, undan keyingi ikkinchi o‘rinni esa MgSO<sub>4</sub> egallaydi, ularning tarkibidagi zaharli tuzlarning miqdori oson eruvchi tuzlarning umumiy miqdorini 30-44% ni tashkil etgan holda o‘zgarib turadi (3-jadvalga qarang).

## 3-jadval

## Fargʻona viloyati tuprogʻidagi oson eriydigan tuzlarning miqdori


kesimi	Chuqurligi, sm	zich chokma	HCO <sub>3</sub>	Cl	SO <sub>4</sub>	Ca	Mg	Na	Tuzlanish	
									%	
Oddiy boʻz tuproq										
30	0–31	0,135	0,036	0,007	0,054	0,015	0,006	0,016	sulf	shoʻr emas
	31–49	0,255	0,039	0,007	0,140	0,020	0,012	0,039	sulf	shoʻr emas
	49–87	0,225	0,036	0,007	0,121	0,020	0,012	0,030	sulf	shoʻr emas
	87–150	0,300	0,033	0,007	0,175	0,020	0,015	0,048	sulf	kuchsiz
Och boʻz tuproq										
10	0–31	0,245	0,033	0,014	0,113	0,015	0,015	0,030	sulf	shoʻr emas
	31–50	0,315	0,033	0,011	0,154	0,010	0,006	0,072	sulf	kuchsiz
	50–92	0,355	0,037	0,011	0,175	0,010	–	0,073	sulf	kuchsiz
	92–124	0,330	0,037	0,007	0,164	0,010	0,003	0,080	sulf	kuchsiz
	124–150	0,460	0,037	0,011	0,257	0,010	0,006	0,118	sulf	kuchsiz
Oʻtloqli boʻz tuproq										
12	0–33	0,720	0,024	0,010	0,463	0,180	0,006	0,019	sulf	kuchsiz
	33–46	0,645	0,024	0,007	0,421	0,1710	0,006	0,008	sulf	kuchsiz
	46–75	0,650	0,024	0,007	0,421	0,160	0,009	0,014	sulf	kuchsiz
	75–105	0,900	0,021	0,007	0,586	0,203	0,015	0,028	sulf	kuchsiz
	105–155	0,920	0,018	0,007	0,607	0,240	0,006	0,014	sulf	kuchsiz
Oʻtloqli										
42	0–30	1,270	0,027	0,017	0,749	0,280	0,012	0,035	sulf	Oʻrtacha
	30–60	1,350	0,024	0,021	0,802	0,320	0,003	0,033	sulf	Oʻrtacha
	60–110	1,360	0,021	0,021	0,808	0,290	0,030	0,018	sulf	Oʻrtacha
	110–170	1,425	0,027	0,021	0,843	0,300	0,024	0,037	sulf	Oʻrtacha



Yuqoridagilarni hisobga olib shunday xulosa qilish mumkinki, mintaqadagi ekologik va meliorativ vaziyatni yaxshilash uchun: yer osti suvlariga tuproq orqali mineral moddalarni yuvilib tushishini oldini olish, drenajlar ish samaradorligini yaxshilash, sugʻorish uchun ishlatiladigan suv sarfi miqdorini kamaytirish kabi chora tadbirlar majmuasini qoʻllash tavsiya etiladi.

Fargʻona viloyati va Fargʻona shahar aholisini ichimlik suvi bilan taʼminlash manbalarini ekologo-gigiyenik tavsifi. Fargʻona viloyati va Fargʻona shahrini ichimlik suvi taʼminotini gigiyenik baholash va aholiga salomatligiga taʼsir omillarni oʻrganish» yuzasidan «Oʻzbekgidrogeologiya» DUK Fargʻona dala gidrogeologiya ekspeditsiyasi bergan maʼlumotlarga koʻra, Fargʻona viloyati hududida dastlab olib borilgan gidrogeologik tadqiqotlar bilan 5 ta yer osti suv manbalari aniqlangan boʻlib, ularning bashoratlangan suv zahiralar jami 8169,1 ming metr kub/sutkani tashkil qiladi. Shundan 2706 ming metr kub/sutkasi (33 foiz) mineralizatsiyasi 1,0 g/l gacha boʻlgani hisoblanadi. «Oʻzbekgidrogeologiya» DUKning Fargʻona dala gidrogeologiya ekspeditsiyasi tomonidan olib borilayotgan yer osti suvlari davlat monitoringi maʼlumotlariga muvofiq viloyatda 9290 ta (shundan 6823 tasi ishchi holatda) foydalanish quduqlari roʻyxatga olingan boʻlib, ular yordamida olinayotgan yer osti suvlarining miqdori jami 5087,8 ming metr kub/sutkani tashkil qilmoqda.

Fargʻona shahri uchun eng yirik ichimlik suv taʼminoti manbai boʻlgan “Pakana-Logʻon xamda Avval” suv olish inshootlari boʻyicha 7.04.1990 Davlat zahiralar komissiyasi tomonidan 504,1ming metr kub/sut miqdorida yer osti suv zahiralar tasdiqlangan. Mazkur Pakana-Logʻon suv olish inshooti yer osti suvlarining sifati xam dastlabki tasdiqlangan davrga nisbatan oʻzgarishini quyidagi chizmada va jadvalda xam koʻrish mumkin (1-rasmga va 4-jadvalga qarang).



**1-rasm. Pakana-Logʻon suv olish inshootining toʻyinish qismida 2003-2021 yillar davomida yer osti suvlari sifatini oʻzgarishi.**

4-jadvalda berilgan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladigan burg'uli quduqlarning suvlari asosan inson faoliyati natijasida ifloslanishini va bu holat yer osti suvlarini muntazam ravishda minerallik ko'rsatkichlari, quruq qoldiq, mikroelementlar (kalsiy, temir) ko'rsatkichlari natijalari bo'yicha DavSt va SanNvaQ talablariga mos kelmasligini bildiradi.

#### 4-jadval

#### “Pakana-Log'on” suv manbasidan olinadigan suvning sifat ko'rsatkichlari

№	Ko'rsatkichlar	2019	2020	2021
1	pH	7,0±0,01	6,9±0,01	7,01±0,03
2	Oksidlanish	1,20±0,34	1,95±0,83	1,50±0,64
3	Umumiy qattqlik	13,80±1,59	12,25±1,55	11,05±1,38
4	Quruq qoldiq	538,2±151,7	430,1±123,4	528,6±135,1
5	Sulfatlar	278,5±45,66	268,4±38,74	299,9±51,18
6	Xloridlar	28,65±7,72	27,26±9,20	27,80±11,65
7	Kalsiy	83,87±21,14	82,85±20,11	62,29±19,90
8	Temir	0,02±0,02	0,03±0,06	0,04±0,07
9	Nitritlar	0,94±0,016	0,92±0,014	0,90±0,011

Farg'ona shahar aholisini markazlashtirilgan holda ichimlik suv bilan ta'minlovchi “Pakana-Log'on” bosh suv ta'minoti inshootining hududi 82 000 m<sup>2</sup> ni tashkil etadi, stantsiya 1957 yilda ishga tushirilgan (O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2010-yil 30-iyuldagi PQ-1378-sonli qaroriga asosan 2015 yil qayta rekonstruktsiya qilingan), tassarufida 68 ta burg'uli quduqlar mavjud, ammo hozirgi kunda yer osti suvlari tarkibini o'zgarishi, undagi mineral moddalar miqdorini haddan tashqari yuqori bo'lganligi sababli 6 ta burg'uli quduqlar tamg'alangan. Burg'uli quduqlar suvni yer ostidan 130-160 metr chuqurlikdan tik drenaj nasoslar yordamida olinadi. Yer osti suvining statis sathi 7-12 metrni tashkil etadi. Stantsiyada har birining xajmi 5000 m<sup>3</sup> bo'lgan ikkita toza suv saqlash rezervuari mavjud. Stantsiya hududida burg'uli quduqlardan olingan suv profilaktika maqsadida xlorlanadi va aholiga markazlashtirilgan holda yetkazib beriladi.

Dissertatsiyaning «Farg'ona shahar aholisining salomatligi va ichimlik suvining sifat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikning tahlili hamda tibbiy-demografik ko'rsatkichlar» deb nomlangan to'rtinchi bobida demografik vaziyat Farg'ona viloyati aholisining 1989—2000 yillardagi o'rtacha yillik ko'payishi 2 foizga teng. 2000 yilda bu ko'rsatkich 1,2 foizga tushib qoldi. 1989 yilda viloyatda 2140 ming kishi yashagan, 2001 yilda esa bu raqam 156 mingga ko'paygan. Aholi soni bo'yicha Farg'ona viloyati Respublikada Samarqand viloyatidan keyin ikkinchi o'rinni egallaydi. Demografik jarayonlarning susayib borishi eng avvalo tug'ilish darajasining pasayishiga bog'liq. Hozirgi davrda viloyat tumanlarida umumiy

